



2019-yilning yanvar oyida O'zbekiston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi

RAQAMLAR:

22,1 trln.so'm sanoat ishlab chiqarish hajmi

106,9 % fizik hajm indeksi

6,1 trln.so'm iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

118,4 % o'sish sur'ati

27,6 % iste'mol tovarlarining jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi

26,5 % sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar oyida respublika korxonalari tomonidan 22,1 trln.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi* 106,9 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – 5,3 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 7,5 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 4,2 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish – 13,5 % ga o'sishi hisoblanadi.

2019-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



* Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

2019-yilning yanvar oyida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarishning o'sishiga qo'shgan hissasi



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar oyida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 4,1 trln.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 18,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan tabiiy gaz qazib olish 2,9 % ga oshdi. Shu bilan birga, ko'mir qazib olish 33,0 % ga, neft - 5,0 % ga, gaz kondensati - 0,3 % ga, molozlar 30,5 % ga va shag'al - 16,4 % ga pasaygan.



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Ko'mir, ming t.		
351,2		235,3	67,0 ↓
	Neft, ming t.		
63,8		60,6	95,0 ↓
	Tabiiy gaz, mln.kub.m.		
5094,9		5241,3	102,9 ↑
	Gaz kondensati, ming t.		
185,9		185,4	99,7 ↓
	Chaqiq tosh, ming t.		
65,0		45,2	69,5 ↓
	Shag'al, ming t.		
20,3		17,0	83,6 ↓




Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).

2019-yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15,8 trln.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 71,2 % ini tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 1,2 % ni (2018-yil yanvar oyida - 1,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 27,8 % (27,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 33,8 % (31,2 %) va quyi texnologiyali - 37,1 % (40,0 %) tashkil etdi.

Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi



Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, treylerlar, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 15,9 % (2018-yilning yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi o'sishi 22,3 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 13,8 % (4,4 %), oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 10,7 % (20,6 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 7,7 % (1,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 13,7 % (0,7 % ga kamaygan)ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda yuk avtomobillari - 2,1m., yengil avtomobillar - 38,8 %, avtomobil dvigatellari - 78,1%, avtobuslar - 1,9 m., dizel yoqilg'isi - 14,2 %, porshenli dvigatellarni ishga tushirish uchun qo'rg'oshinli akkumulyatorlar - 3,0 %, yurguzuvchi g'ildiraklar, ularning qismlari va jihozlari - 74,4%, radiatorlar, shovqin so'ndirgichlar va chiqarish quvurlari, ulovchi mexanizmlar, rul chambaraklari, rul kolonkalari va rul mexanizmlarining karterlari va ularning qismlari - 22,3% ga oshdi.

Texnologik jihozlarni kapital ta'mirlash ishlari kimyo korxonalarini ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish hajmini oshirish imkonini berib, kaliy xlorid (2018-yil yanvar oyiga nisbatan 113,6 %), karbamid (124,2 %), ammoniy sulfat (164,4 %), ammoniy nitrat (129,1 %), akril va vinilpolimerlari asosidagi bo'yoq va laklar (159,8 %), gerbitsidlar (161,7 %), kaustik soda (176,0 %), boshqa azotli o'g'itlar va ularning aralashmalari (4,1 m.), azot, fosfor va kaliyli mineral o'g'itlar (1,8 m.) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
	Yengil avtomobillar, dona		
12585		17466	138,8 ↑
	Yuk avtomobillari, dona		
177		367	2,1 m. ↑
	Avtobuslar, dona		
39		74	1,9 m. ↑
	Avtomobil dvigatellari, dona		
9223		16428	178,1 ↑
	Paxta tolasi, ming t.		
128,8		100,1	77,7 ↓
	O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.		
17,9		18,1	101,2 ↑

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
Tamaki mahsulotlari, mln. dona			
892		815	91,4 ↓
Avtomobil benzini, ming t.			
105,0		71,6	68,2 ↓
Dizel yoqilg'isi, ming t.			
71,5		81,7	114,2 ↑
Portlandsement, ming t.			
566,5		640,0	113,0 ↑
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, t.			
439,0		701,6	159,8 ↑
Traktorlar, dona			
100		9	9,0 ↓





Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2,0 trln.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 9,2 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hajmining o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 4,5 % ga va gazsimon yonilg'ini ishlab chiqarish va taqsimlash hajmi – 0,6 % ga oshganligi kuzatildi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
6026,6	Elektroenergiya, mln.kVt/s 	6110,7	101,4 ↑
3974,1	Issiqlik energiyasi, ming Gkal 	3903,6	98,2 ↓

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 197,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,9 % ni) tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davriga nisbatan tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 2,5 martaga, tarkibida mis bo'lgan ikkilamchi xom ashyoni – 1,8 martaga, axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar – 6,0 m., ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari – 48,9 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarning – 59,4 % ga, xavfli bo'lmagan chiqindilarni yig'ish xizmatlari – 40,7 % ga oshganligi kuzatildi.

Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2018-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvarda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--------------------------------------	---	--------------------------------------	-------------------

Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna

23,0



16,7

72,8



Tarkibida alyuminiy bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, tonna

238,0



589,0

2,5 p.



Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd. so'm

11,3



18,1


159,4



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 6,1 trln.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar oyiga nisbatan 18,4 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 27,6 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar oyiga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 68,0 % dan 2019-yilning yanvar oyida 68,3 % ga oshishi kuzatilmoqda.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida sharob va aroq mahsulotlari va pivo 7,7% ni (2018-yil yanvar oyida 9,0 %) tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi



Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 7,8 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 35,1 % ni tashkil etdi.

Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %.


2018-yil yanvar

2019-yil yanvar



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning umumiy hajmida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarining ulushi - 23,2 %, ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarining ulushi - 76,7 % ni tashkil etdi.


Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Toshkent viloyati (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 15,8 %), Toshkent shahri (14,3 %), Navoiy (14,3 %), Andijon (10,2 %), Qashqadaryo (7,1 %) va Farg'ona (5,8 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi 2018-yil yanvar oyiga nisbatan %




Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora-tadbirlar natijasida, Andijon (2018-yil yanvar oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 122,7 %), Samarqand (113,1 %), Toshkent (110,3 %), Namangan (108,5 %) va Xorazm (108,4 %) viloyatlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, Andijon (2018-yil yanvar oyiga nisbatan 146,4 %), Xorazm (116,3 %), Surxondaryo (114,1 %) va Sirdaryo (111,4 %) viloyatlarida iste'mol tovarlarini sezilarli darajada oshdi.

Shuningdek, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Andijon (iste'mol tovarlari hajmida 28,2 %), Toshkent shahar (20 %), Samarqand (8,2 %) va Toshkent (7,8 %) viloyatlarida ishlab chiqarildi.


2019-yil yanvar oyida hududlar bo'yicha istemol mollarning o'sish sur'atlari 2018-yil yanvar oyiga nisbatan %



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Navoiy viloyatida (3267,4 ming so'm), Toshkent shahrida (1273,8 ming so'm), Toshkent (1216,1 ming so'm) va Andijon (740,0 ming so'm) viloyatlarida o'rtacha respublika darajasi ko'rsatkichidan (671,8 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Respublika bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 185,2 ming so'm bo'lgani holda Andijon viloyatida 567,3 ming so'mni, Toshkent shahrida 491,6 ming so'mni, Navoiy viloyatida 173,4 ming so'mni, Toshkent viloyatida 165,6 ming so'mni va Sirdaryo viloyatida 164,6 ming so'mni tashkil etdi.

2019-yil yanvar oyida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish va istemol mollarning o'sishi 2018-yil yanvar oyiga nisbatan %




Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 5,9 trln. so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida kichik korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 26,5 % ni tashkil etdi.

2019-yilning yanvar oyida hududlar bo'yicha yirik korxonalar va kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %




Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Toshkent shahrida (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 73,0 %), Namangan (58,7 %), Jizzax (50,1 %), Samarqand (43,3 %), Surxondaryo (36,4 %), Sirdaryo (34,4 %) va Farg'ona (27,6 %), viloyatlarida kuzatildi.

Shu bilan birga, eng kichkina ulush Navoiy (8,8 %), Qashqadaryo (13,6 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (13,8 %), Andijon (17,4 %) viloyatlarida kuzatildi.

Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari


Bugungi kunda Respublikada 59,0 mingta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 13,7 mingtasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 23,2 %) Toshkent shahriga, 6,5 mingtasi (11,0 %) Farg'ona viloyatiga, 6,2 mingtasi (10,5 %) - Toshkent viloyatiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 fevral holatiga)



2019-yil yanvar oyida Respublikada 2424 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 55,1 foizi Toshkent shahri, Buxoro, Toshkent, Samarqand va Farg'ona viloyatlariga to'g'ri keladi.

Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil yanvar)



Sanoat statistikasi boshqarmasi

Aloqa telefoni: (71) 230-80-46